







## YALPI HUDUDIY MAHSULOT


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilda Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM ) hajmi joriy narxlarda 88 567,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yil bilan taqqoslaganda 1,5 % ga o'sdi. YaHM deflyator indeksi 2019- yil narxlariga nisbatan 111,3 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YalMning shakllanishida Toshkent shahrining qo'shgan hissi 15,3 % ga yetdi.



### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


|   |  | Mlrd. so'm      |                 | O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da |
|---|--|-----------------|-----------------|---|
|   |  | 2019- yil       | 2020- yil       |   |
|   | <b>I. YaHM</b>                                   | <b>78 411,0</b> | <b>88 567,7</b> | <b>101,5</b>                                  |
|   | <i>shu jumladan:</i>                             |                 |                 |   |
|  | Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati           | 68 952,4        | 78 649,9        | 101,5   |
|  | Mahsulotlarga sof soliqlar                       | 9 458,6         | 9 917,8         | 101,7   |
|   | <b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>    | <b>68 952,4</b> | <b>78 649,9</b> | <b>101,5</b>                                  |
|   | <b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>        | <b>34 046,3</b> | <b>38 128,4</b> | <b>101,4</b>                                  |
|  | sanoat   | 27 074,3        | 30 144,9        | 100,6   |
|  | qurilish   | 6 972,0         | 7 983,5         | 104,1   |
|   | <b>Xizmatlar</b>                                 | <b>34 906,1</b> | <b>40 521,5</b> | <b>101,6</b>                                  |
|  | savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 10 608,8        | 12 592,3        | 102,1   |
|  | tashish va saqlash, axborot va aloqa             | 9 012,8         | 9 994,4         | 103,3   |

|   |                          | Mld. so'm |           | O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da |
|---|--------------------------|-----------|-----------|---|
|   |                          | 2019- yil | 2020- yil |   |
|  | boshqa xizmat tarmoqlari | 15 284,5  | 17 934,8  | 100,3   |

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 33 747,8 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,7 % ga kamaygan.



**Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va mutlaq o'sish sur'atlari**




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 88,8 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 11,2 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida sanoat tarmog'ining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 38,3 % ni, qurilish 10,2 % ni va xizmatlar sohasi 51,5 % ni tashkil qildi.




## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

|   |   | 2019- yil    | 2020- yil    |
|---|---|--------------|--------------|
|   | <b>I. YaHM, jami</b>                              | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> |
|   | <i>shu jumladan:</i>                              |              |              |
|    | Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati            | 87,9         | 88,8         |
|    | Mahsulotlarga sof soliqlar                        | 12,1         | 11,2         |
|   | <b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b> | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> |
|   | <b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>         | <b>49,4</b>  | <b>48,5</b>  |
|   | sanoat  | 39,3         | 38,3         |
|  | qurilish  | 10,1         | 10,2         |
|   | <b>Xizmatlar</b>                                  | <b>50,6</b>  | <b>51,5</b>  |
|  | savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar  | 15,4         | 16,0         |
|  | tashish va saqlash, axborot va aloqa              | 13,1         | 12,7         |
|  | boshqa xizmat tarmoqlari                          | 22,1         | 22,8         |




**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi**  
(jamiga nisbatan % da)


2019- yil





2020- yil



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari sanoatda – 100,6 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 38,3 %), qurilishda – 104,1 % (10,2 %), xizmatlar sohasida – 101,6 % (51,5 %) ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 102,1 % (16,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 103,3 % (12,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 100,3 % (22,8 %) dan iborat bo'ldi.



## YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)



## 2020- yilda YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2020- yilda YaHM deflyatori indeksi 2019- yil narxlariga nisbatan 111,3 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari savdo, xizmatlar sohasida – 114,2 % qayd etildi.



## YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)

